

6/2024,  
noyabr-  
dekabr  
(№ 00074)



## **O‘ZBEKISTON ERKIN IQTISODIY ZONALARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING SAMARADORLIGI STATISTIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI**

**PhD. Nazarov Nazar**

*Kadrlar malakasini oshirish va ilmiy tadqiqotlar instituti*

**ORCID:** <https://orcid.org/0009-0007-2599-8769>

**Email:** [nazarbek.2728@gmail.com](mailto:nazarbek.2728@gmail.com)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol12\\_iss6/612](https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss6/612)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalaridagi tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini baholash uchun statistik ko‘rsatkichlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda mehnat unumdorligi (ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining xodimlar soniga nisbati) va jalb qilingan investitsiyalar hajmi asosiy ko‘rsatkich sifatida tanlandi. Maqolada “Navoiy” EIZsi tadbirkorlik subyektlarining 2018–2023 yillardagi statistik ma’lumotlar asosida iqtisodiy tahlillar qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** erkin iqtisodiy zona, iqtisodiy samadorlik, tadbirkorlik subyekti, statistik ko‘rsatkichlar.

### **АНАЛИЗ СТАТИСТИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ УЗБЕКИСТАНА**

**PhD. Назаров Назар**

*Институт развития человеческих ресурсов и научных исследований*

### **Аннотация**

Данная статья посвящена анализу статистических показателей для оценки эффективности деятельности хозяйствующих субъектов в Свободных экономических зонах Узбекистана. В ходе исследования в качестве основных показателей были выбраны производительность труда (отношение объема производства к численности занятых) и объем привлеченных инвестиций. В статье проведены экономический анализ на основе статистики деятельности хозяйствующих субъектов “Навои” СЭЗ за 2018-2023 годы. По результатам исследования были разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности.

**Ключевые слова:** свободная экономическая зона, экономическая однородность, хозяйствующий субъект, статистические показатели.

### **ANALYSIS OF STATISTICAL INDICATORS OF THE EFFECTIVENESS OF BUSINESS ENTITIES IN THE FREE ECONOMIC ZONES OF UZBEKISTAN**

**PhD. Nazarov Nazar**

*Institute for human resource development and scientific research*

## **Abstract**

This article is devoted to the analysis of statistical indicators for assessing the effectiveness of business entities in the Free Economic Zones of Uzbekistan. In the study, labor productivity (the ratio of the volume of production to the number of employees) and the volume of investments involved were selected as the main indicators. The article carried out economic analysis based on statistics of business entities "Navoi" FEZ in 2018-2023. Based on the results of the study, scientific and practical recommendations for improving efficiency were developed.

**Keywords:** free economic zone, economic sameness, business entity, statistical indicators.

## **Kirish**

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va zamonaviy global talablarga javob berish uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tadbirkorlik subyektlari – mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim tayanch bo'lib, ular ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bois, tadbirkorlikni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash soha uchun doimiy ravishda ustuvor vazifa bo'lib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yilda qabul qilingan PF-4947-son "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu Farmon iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, soliq va moliyaviy yengilliklarni kiritish, shu jumladan kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab muhim qadamlarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, 2020-yil 15-yanvarda № PF-5996-son "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni EIZlardagi iqtisodiy faoliyatni yanada samarali qilishga, investitsiyalarning rivojlanishini rag'batlantirishga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirishga qaratilgan muhim huquqiy asos yaratdi. Ushbu qaror, shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilash va EIZlarda ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda. Ushbu farmonlarning ta'siri, o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini baholash tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi. Biznesni qo'llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlari va investitsiyaviy muhitni yaxshilash ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Tadbirlar, shuningdek, yangi iqtisodiy makon va yuqori raqobat muhitini yaratib, tadbirkorlik subyektlarini o'z faoliyatlarini samarali boshqarishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga undadi.

Shunga ko'ra tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini baholashda ishlatiladigan statistik ko'rsatkichlar tahlil qilish, O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning zamonaviy statistika metodlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlarni o'rganish zarur hisoblanadi.

## **Adabiyotlar sharhi**

So'nggi yillarda jahon iqtisodchilari hamda mahalliy olimlar tomonidan EIZlardagi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash, iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Iqtisodchi olimlar Jones va Smith (2019) mehnat unumdorligi va investitsiyalarni samarali boshqarish tadbirkorlik subyektlarining muvaffaqiyatining asosiy omili ekanligi,

aynan kadrlar salohiyatini oshirish hamda investitsiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali iqtisodiy samadorlikni oshirish mumkinligini ta‘kidlashadi. Kim va Lee (2022) Janubiy Koreyada investitsiyalarning sanoat ishlab chiqarishiga ta‘siri bo‘yicha tadqiqot o‘tkazib, unda investitsiyalar hajmi va samaradorlik o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik aniqlagan.

Kumar va Singh (2023) rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlarida mehnat unumdorligi va innovatsion faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni o‘rgangan. EIZlarda kadrlarning salohiyatini oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishini o‘rgangan.

Abdullaev va Ismoilov (2020) EIZlarning mamlakat eksportini oshirishdagi rolini muhokama qilib, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosatini rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy salohiyatni oshirish zarurligini ta‘kidladilar.

Yuldashev (2021) O‘zbekiston EIZlarida tadbirkorlik sub'ektlari duch keladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni o‘rganadi. Bunda, tadbirkorlik subyektlari ekportini qo‘llab-quvvatlash uchun logistika ham ma‘muriy muammolarni bartaraf etish zarurligini ta‘kidlaydi.

O‘sib borayotgan tadqiqotlar guruhi EIZlardagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholashda statistik vositalarning ahamiyatini ta‘kidlaydi. Misol uchun, Bohmer va b. (2020) soliq imtiyozlarining EIZlar ichidagi investitsiya oqimlariga ta‘sirini baholash uchun regressiya tahlilidan foydalangan. Bundan tashqari, EIZlarda bandlik va ishlab chiqarish tendentsiyalarini kuzatish uchun tavsiflovchi statistikadan foydalanish Smit va Braun tomonidan qo‘llab-quvvatlangan (2019).

Bizningcha, EIZlardagi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samadadorligini mehnat unumdorligi, innovatsiyasilar, investitsiyalar hajmi, ishchilarning salohiyati, eksport hajmi, ishlab chiqarish hajmi kabi bir qancha statistik ko‘rsatkichlar orqali aniqlash mumkin. Aynan, investitsiyalar hamda ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatkichkichi iqtisodiy samaradorlikni boshqa ko‘rsatkichlarga qaraganda ko‘proq izohlaydi, chunki EIZlarning iqtisodiy samadorligi aynan investiyalarga bog‘liqdir.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda trend tahlili, o‘rtacha yillik o‘zgarish foizlari va statistik taqqoslash usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda O‘zbekiston davlat statistika agentligining ma‘lumotlaridan foydalanildi.

#### **Natijalar**

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi EIHLaridagi tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini baholashda ishlatilgan statistik ko‘rsatkichlar — mehnat unumdorligi va investitsiyalar hajmi — asosida olib borilgan tahlil natijalari keltirildi. Jadvalda taqdim etilgan ma‘lumotlar 2018-2023 yillardagi “Navoiy” EIZsidagi tadbirkorlik subyektlarining statistik ma‘lumotlarini o‘z ichiga olgan va tadbirkorlik subyektlarining samaradorligi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni ko‘rsatadi.

**1-jadval**

**Mehnat unumdorligi va investitsiyalar samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik (2018-2023)**

Yillar	Hudud	Tadbirkorlik subyektlari soni	Ishchilar soni (ming kishi)	Ishlab chiqarish hajmi (mlrd. UZS)	Mehnat unumdorligi (mln. UZS/xodim)	Investitsiyalar hajmi (mlrd. UZS)	Investitsiyalar -ning samaradorligi (mln.UZS/sarflangan investitsiya)
2018	Navoiy EIZ	3520	125	340	2.71	450	0.76
2019	Navoiy EIZ	3700	130	380	2.92	470	0.8
2020	Navoiy EIZ	3900	140	420	3.0	500	0.84
2021	Navoiy EIZ	4050	145	460	3.17	520	0.85
2022	Navoiy EIZ	4200	150	490	3.27	540	0.86
2023	Navoiy FEZ	4500	160	530	3.31	550	0.87

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra:

1. Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlik: Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlarga ko'ra, mehnat unumdorligining oshishi ishlab chiqarish hajmining ortishiga olib kelgan. 2018-yildan 2023-yilgacha ishchilar soni oshib borar ekan, ishlab chiqarish hajmi ham doimiy ravishda ko'paygan. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish jarayonining samarali tashkil etilishi va yangi texnologiyalarning joriy etilishiga ishora qiladi.

2. Investitsiyalar va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlik: Jadvaldan shunday xulosa qilish mumkinki, investitsiyalar hajmi oshgani sari ishlab chiqarish hajmi ham oshgan. 2018-yildan 2023-yilgacha investitsiyalar hajmi 450 milliard so'mdan 550 milliard so'mga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 340 milliard so'mdan 530 milliard so'mga yetgan. Bu investitsiyalarning ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

3. Investitsiyalarning samaradorligi: Investitsiyalarning samaradorligi ko'rsatkichi 2018-yildan 2023-yilgacha oshgan, bu esa investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar, avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va iqtisodiy tizimning modernizatsiyasi orqali amalga oshirilgan.

4. Ishlab chiqarish va mehnat unumdorligi o'rtasidagi muvozanat: Ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan mehnat unumdorligi ham oshgan. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish quvvatlarining rivojlanishi, ishchilar malakasining oshirilishi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liqdir.

**Muhokama**

O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida (EIZ) tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini baholashda, mehnat unumdorligi va investitsiyalar samaradorligi muhim ko'rsatkichlardir. Ushbu maqolada tahlil qilingan Navoiy misolida, bu ko'rsatkichlarning qanday o'zgarishi, ularning o'zaro bog'liqligi va iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatgani ko'rsatilgan. Tadbirlar va siyosatlarining samaradorligi, EIZlardagi biznes

faoliyatining barqarorligini oshirishda va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, “Navoiy” EIZidagi mehnat unumdorligi va investitsiyalar samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirishda investitsiyalarning rolini inkor etish mumkin emas. Mehnat unumdorligining oshishi, asosan, investitsiyalarning samarali sarflanishi va yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining joriy etilishi bilan bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida, ishlab chiqarish hajmining oshishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, va iqtisodiy o‘sishga ta‘sir ko‘rsatadi .

Navoiy EIZ misolida, ishlab chiqarish hajmining 5 yilda 340 mlrd. so‘mdan 530 mlrd. so‘mgacha oshganligi va ishchilar sonining 125 ming kishidan 160 ming kishiga ko‘payganligi, EIZda ishchi kuchining samarali ishlatilganini va investitsiyalar samaradorligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar, investitsiyalarning yuqori samaradorlikka erishganligini va natijada iqtisodiy o‘sishning sodir bo‘lishini isbotlaydi.

Shu bilan birga, mehnat unumdorligi va investitsiyalarning samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashda, ba‘zi hududlarda investitsiyalarni samarali jalb qilishdagi muammolarni ham ko‘rsatish kerak. Bunday hududlarda ishlab chiqarish hajmi o‘sishga qaramay, mehnat unumdorligi va investitsiyalar samaradorligi pastroq bo‘lishi mumkin. Buning sabablari sifatida ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, ma‘lumot texnologiyalarining past darajada joriy etilishi yoki investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha mavjud siyosatning samarasizligi ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston hukumati tomonidan EIZlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar, ishlab chiqarish va investitsiyalarning samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Hukumatning soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam, infratuzilma rivojlantirishga qaratilgan siyosati va biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan qarorlari EIZlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishda, yangi texnologiyalarni joriy etishda va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishda o‘z natijasini ko‘rsatmoqda.

Biroq, mavjud siyosatni takomillashtirish zarurati ham mavjud. Tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ish olib borish kerak:

1. **Investitsiya muhitini yaxshilash:** EIZlardagi investitsiyalarni ko‘paytirish uchun xalqaro va mahalliy investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, soliq imtiyozlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish zarur.

2. **Innovatsion texnologiyalarni joriy etish:** Ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish kerak.

3. **Ma‘lumotlar va logistika tizimlarini yaxshilash:** EIZlardagi tadbirkorlik subyektlari uchun aniq va dolzarb ma‘lumotlar bazalarini yaratish va ularni samarali boshqarish tizimlarini joriy etish muhim .

Mehnat unumdorligi va investitsiyalar samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish, EIZlardagi tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirishning samarali usullarini aniqlashga yordam beradi. EIZlar orqali iqtisodiy diversifikatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, va yangi ish o‘rinlarini yaratish mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Biroq, davlat siyosatini yanada takomillashtirish, infratuzilma va logistika tizimlarini rivojlantirish, va investitsiyalarni samarali jalb qilish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqarish zarur.

Tahlil va natijalardan kelib chiqib, O‘zbekiston EIZlarida tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak:

- Texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni joriy etish;
- Yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- Yaxshi ishlab chiqilgan soliq siyosatini amalga oshirish.

Yuqoridagilarning amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonning EIZlarida mehnat unumdorligi va investitsiyalar samaradorligini oshirish orqali tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini yuqori darajaga olib chiqish mumkin bo‘ladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘shishni, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ham oshiradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida (EIZ) tadbirkorlik subyektlarining samaradorligi yuqori darajada o‘shish ko‘rsatkichlarini namoyon qilmoqda. Mehnat unumdorligi va investitsiyalarning samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish orqali EIZlardagi tadbirkorlik subyektlarining faoliyati va iqtisodiy o‘shishning o‘zaro aloqasi aniqlandi. Investitsiyalarni jalb qilish va mehnat unumdorligini oshirish orqali, ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin bo‘ldi. Biroq, bu jarayonni yanada samarali amalga oshirish uchun ba’zi sohalarda qo‘shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Shu bilan birga izlanishlardan kelib chiqqan holda EIZlardagi tadbirkorlik subyektlari samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

1. Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish. O‘zbekiston EIZlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Davlat tomonidan texnologik yangilanishlar uchun qo‘shimcha imtiyozlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Bu, o‘z navbatida, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

2. Investitsiya muhitini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish. Erkin iqtisodiy zonalaridagi investitsiyalarning samarali taqsimlanishi va o‘shishi uchun investitsiya muhitini yanada yaxshilash lozim. Hukumat tomonidan investorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish, va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengaytirilishi zarur.

3. Infratuzilma va logistika tizimlarini takomillashtirish. EIZlardagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun infratuzilma va logistika tizimlarini yaxshilash zarur. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari uchun zamonaviy transport, kommunikatsiya va logistika tizimlari joriy etilishi, bu esa investitsiyalarning tez va samarali ishlatilishini ta‘minlaydi va ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshiradi.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirish va iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar va investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Smith, J., & Jones, R. (2019). Product-per-employee ratios and their impact on competitiveness and profitability in emerging markets. *Journal of Business Economics*, 34(2), 120-135. <https://doi.org/10.1016/j.jbe.2019.03.015>

2. Kim, H., & Lee, S. (2022). The impact of investments on industrial production in South Korea: A direct link between investment size and productivity. *Journal of Economic Development*, 47(3), 112-129.

3. Kumar, P., & Singh, R. (2023). Interactions between labor productivity and innovation activities in developing countries. *International Journal of Innovation and Economic Development*, 5(2), 75-90.

4. Abdullaev, K., & Ismoilov, A. (2020). The Role of Free Economic Zones in the Economic Development of Uzbekistan. *Journal of Economic Studies*, 12(3), 45-60.

5. Böhmer, M., et al. (2020). *Tax Incentives and Investment in Free Economic Zones*. *International Journal of Economics*, 8(4), 201-217.

6. Yuldashev, R. (2021). *Free Economic Zones in Uzbekistan: Current Trends and Prospects*. *Economic Review*, 15(2), 78-91.

7. Назар, Назаров. "THE ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES IN DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN UZBEKISTAN." *ЖУРНАЛ ИННОВАЦИИ В ЭКОНОМИКЕ* 4.6 (2021).

8. NAZAROV, N. (2021). Analysis of business entities with the development of innovative and investment activities of entrepreneurship in free economic zones. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (10), 719-727.

9. Nazarov, N. (2020). Integrity into Global Trade with Attractive Investment Practice in Free Economic Zones (Case of Uzbekistan). *Theoretical & Applied Science*, (2), 55-66.

10. Zeng, D. Z. (2016). *Special Economic Zones: Lessons from the Global Experience*. *World Bank Publications*. Retrieved from <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/24324>